



**TOVAR BELGISI VA XIZMAT KO'RSATISH BELGISI SIFATIDA  
RO'YXATDAN O'TKAZISH UCHUN TOPSHIRILGAN TALABNOMANI  
KO'RIB CHIQISH TARTIBI**

*Razzoqova Flora Shamsiddin qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*4-kurs talabasi*

*Saidov Shoxruxxon Muzaffarovich*

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan talabnomalarni ko'rib chiqish tartibi, bosqichlari va huquqiy asoslari yoritilgan. Amaldagi qonunchilik tahlil qilinib, ushbu jarayonni yanada takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan, xalqaro tajriba bilan taqposlab, mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida takliflar bildirilgan.

**Аннотация.** В данной научной статье рассматривается порядок и этапы рассмотрения заявок на регистрацию товарных знаков и знаков обслуживания. Проанализированы действующие законодательные нормы, определены пути совершенствования процедуры с учетом международного опыта, а также предложены рекомендации по устранению существующих проблем.

**Annotation.** This scientific article explores the procedure and stages of reviewing applications for the registration of trademarks and service marks. The analysis is based on the current legislation, and proposals for improving the process are presented. International experience is compared, and solutions for existing issues are suggested.

**Kalit so'zlar:** Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, talabnama, ekspertiza, intellektual multk, ro'yxatdan o'tkazish, qonunchilik, Intellektual multk agentligi.



**Ключевые слова:** Товарный знак, знак обслуживания, заявка, экспертиза, интеллектуальная собственность, регистрация, законодательство, Агентство интеллектуальной собственности.

**Keywords:** Trademark, service mark, application, examination, intellectual property, registration, legislation, Intellectual Property Agency.

### Kirish

Bugungi globallashuv davrida intellektual mulk obyektlari, xususan, tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilarining iqtisodiy muomaladagi o'rni tobora ortib bormoqda. Tovar belgisi ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi subyektning mahsulotlarini raqobatchilarning mahsulotlaridan ajratib turuvchi asosiy vosita sifatida nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan ham himoyaga ehtiyoj sezadi. Shu boisdan tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish va ularni qonuniy himoya qilish masalalari zamonaviy huquqiy tizimda ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni ariza berishdan boshlab, guvohnoma olishgacha bo'lgan murakkab va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Bunda belgi qonunchilikka, axloqiy me'yorlarga va raqobat tamoyillariga muvofiqligi, mavjud belgilar bilan o'xshash yoki aynanlik darajasi aniqlanadi. Ushbu maqolada aynan talabnomani ko'rib chiqish tartibi, uning bosqichlari, amaliy muammolari va xalqaro tajriba asosidagi takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi subyektning mahsulotlari yoki xizmatlarini boshqa subyektlarning mahsulot va xizmatlaridan ajratish vositasi sifatida intellektual mulk obyekti sanaladi. O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni<sup>1</sup>ga muvofiq, tovar belgilarining ro'yxatdan o'tkazilishi Intellektual mulk agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng egasiga eksklyuziv huquqlar kafolatlanadi.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish tartibi belgilangan shaklda amalga oshiriladi. Talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi: belgi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.



tasviri, belgi qo'llaniladigan tovar va xizmatlar ro'yxati, arizachining rekvizitlari va huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar. Talabnama topshirilgach, Intellektual mulk agentligi tomonidan ko'rib chiqish jarayoni boshlanadi va u ikki asosiy bosqichdan iborat bo'ladi: formal ekspertiza va mazmuniy ekspertiza<sup>2</sup>.

Formal ekspertiza bosqichida talabnama rasmiy jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganlik darajasi tekshiriladi, ya'ni barcha zarur ma'lumotlar, tasvirlar va hujjatlar mavjudligi aniqlanadi. Agar kamchiliklar aniqlansa, arizachiga ularni tuzatish uchun muddat belgilanadi. Formal ekspertizadan muvaffaqiyatli o'tgan talabnomalar keyingi - mazmuniy ekspertiza bosqichiga o'tadi. Mazmuniy ekspertizada belgi mavjud qonunchilikka muvofiqligi, boshqa ro'yxatdan o'tgan belgilar bilan aynanlik yoki o'xshashlik darajasi, belgi tarkibidagi unsurlar iste'molchini chalg'itmasligi va davlat ramzları, odob-axloq qoidalariga zid emasligi tekshiriladi. Zarurat tug'ilganda ekspertiza jarayonida qo'shimcha tushuntirish yoki hujjatlar so'ralishi mumkin.

Agar barcha bosqichlarda to'siqlar aniqlanmasa, belgi davlat reyestriga kiritiladi va belgi egasiga guvohnoma rasmiylashtirib beriladi. Ro'yxatdan o'tkazilgan belgilar Intellektual mulk agentligining rasmiy e'lonlarida chop etiladi va e'lon qilingan kundan boshlab belgilangan muddat ichida uchinchi shaxslar tomonidan norozilik bildirilmasa, belgi yakuniy tarzda ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi. Juhon tajribasida esa tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish keng tarqagan. Xususan, Madrid kelishuvi<sup>3</sup> asosida birgina ariza orqali bir nechta davlatlarda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud. Bu arizachilar uchun vaqt va mablag' tejash imkonini beradi, shuningdek, xalqaro miqyosda tovar belgilarini himoya qilishni tezlashtiradi. O'zbekiston amaliyotida esa ayrim muammolar saqlanib qolmoqda<sup>4</sup>. Talabnama ko'rib chiqish muddatining cho'zilishi, ekspertiza bosqichida subyektivlikning yuqoriligi, belgilarning o'xshashligi yuzasidan bahsli holatlar va arizachilarning huquqiy savodxonlik darajasining pastligi - bular amaliyotda tez-tez uchraydigan holatlardir.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining rasmiy sayti: [www.ipcenter.uz](http://www.ipcenter.uz)

<sup>3</sup> World Intellectual Property Organization. "Examination Guidelines for Trademarks," Geneva, 2023.

<sup>4</sup> G'aniyev B.A., "Intellektual mulk huquqi", Toshkent, 2021-yil.



## Xulosa va takliflar

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida subyektlarning intellektual mulkini himoya qilishning asosiy omillaridan biri sanaladi. Belgilarning qonunchilik asosida ro'yxatdan o'tishi tadbirkorlik subyektlariga o'z mahsulotlari va xizmatlarini huquqiy himoya ostida rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ro'yxatdan o'tkazish jarayonining aniqligi va shaffofligi iqtisodiy barqarorlik va raqobat muhitining oshishiga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilik normalarini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, ko'rib chiqish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali talabnomalarni tezkor va aniq ko'rib chiqish tizimini yaratish zarur. Bundan tashqari, tadbirkorlar va huquqshunoslar uchun intellektual mulk sohasida doimiy o'quv-seminarlar tashkil etish, ularning huquqiy bilimini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: elektron ariza topshirish jarayonini soddallashtirish va raqamlashtirish; belgilar o'xshashligini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish; arizachilar uchun bepul maslahat va ma'lumot xizmatlarini tashkil etish; intellektual mulk sohasida tadbirkorlar va mutaxassislar uchun amaliy seminar va treninglar o'tkazish.

Yuqoridaagi takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmat belgilaringin huquqiy muhofazasini mustahkamlash, milliy iqtisodiyotni intellektual jihatdan rivojlantirish va jahon tajribasiga mos zamonaviy tizimni shakllantirishga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.
2. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO). Madrid kelishuvi, 1891-yil; O'zbekiston tomonidan 2006-yilda ratifikatsiya qilingan.
3. G'aniyev B.A., "Intellektual mulk huquqi", Toshkent, 2021-yil.



4. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining rasmiy sayti:  
[www.ipcenter.uz](http://www.ipcenter.uz)
5. World Intellectual Property Organization. "Examination Guidelines for Trademarks," Geneva, 2023.